RAQAMLI LOGISTIKA PLATFORMALARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDAGI MENEJMENT FUNKSIYALARI

Nishanbayev Behzod Qahramonjon o'g'li
Tadqiqotchi
beckksonedu@yahoo.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli logistika platformalarini boshqarish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning klassik menejment funksiyalari - rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish va nazorat - nuqtai nazaridan qanday transformatsiyaga uchrashi tahlil qilingan. Milliy raqamli yuk tashish va logistika ekotizimi misolida sun'iy intellektni joriy etishning tashkiliy-boshqaruv modeli asoslanadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli logistika, menejment funksiyalari, qaror qabul qilish jarayoni, o'zgarishlarni boshqarish.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari nafaqat texnik, balki tashkiliy-boshqaruv xarakteridagi o'zgarishlarni ham talab qilmoqda. Transport-logistika sohasi bu jarayonning eng sezilarli namoyon bo'lgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi: yuk tashishni rejalashtirish, transport resurslarini taqsimlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish endilikda katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qiluvchi algoritmlar yordamida amalga oshirilmoqda. Biroq texnologik yangilanishning o'zi kifoya emas — uni tashkilotning boshqaruv tizimiga, kadrlar tarkibiga va qaror qabul qilish jarayonlariga muvofiq moslashtirish zarurati menejment fanining dolzarb muammosiga aylanmoqda. Milliy raqamli yuk tashish va logistika ekotizimini yaratish konsepsiyasi doirasida ko'zda tutilgan sun'iy intellekt (AI Analytics) moduli ushbu masalani amaliy jihatdan o'rganish uchun mos ob'ekt bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — raqamli logistika platformasini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonida menejmentning asosiy funksiyalari qanday shaklda o'zgarishini aniqlash hamda ushbu o'zgarishlarga tashkiliy jihatdan moslashish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari. Rejalashtirish funksiyasi jihatidan sun'iy intellekt boshqaruv sub'ektiga tajriba va intuitsiyaga emas, balki tarixiy va real vaqt ma'lumotlariga asoslangan prognoz vositasini beradi. Bu yuk oqimlarini, transport ehtiyojlarini va narx dinamikasini oldindan bashorat qilish orqali strategik rejalashtirish sifatini oshiradi, biroq shu bilan birga rejalashtirish bo'yicha qaror qabul qiluvchi shaxslardan ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin etish ko'nikmalarini talab qiladi.

Tashkil etish funksiyasi nuqtai nazaridan AI texnologiyalarini joriy etish an'anaviy tashkiliy tuzilmani qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, broker, carrier va dispatcher o'rtasidagi o'zaro munosabatlar endi faqat shartnoma va bozor mexanizmlari orqali emas, balki platforma tomonidan taklif etiladigan algoritmik tavsiyalar orqali ham tartibga solinadi. Bu esa tashkilotlarda yangi funksional bo'g'inlar — ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar lavozimini joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Qaror qabul qilish jarayoni menejmenti nuqtai nazaridan eng muhim masala — inson va algoritm o'rtasidagi vakolatlar taqsimotini to'g'ri belgilashdir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt boshqaruvchining qarorini to'liq almashtirmasligi, balki uni analitik jihatdan qo'llab-quvvatlashi lozim ("decision-support", to'liq avtomatlashtirilgan "decision-making" emas). Ayniqsa, xavfsizlik, mablag' va yuridik javobgarlik bilan bog'liq yakuniy qarorlarda inson nazorati (human-in-the-loop) saqlanib qolishi tashkiliy risklarni kamaytiradi.

Muvofiqlashtirish va nazorat funksiyasi davriy tekshiruvlardan real vaqt rejimidagi uzluksiz monitoringga o'tadi. Bu boshqaruv apparatidan operativ ma'lumotlarga asoslangan tezkor qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishni talab qiladi, aks holda tizim tomonidan taqdim etilgan signal va tavsiyalar o'z vaqtida amalga oshirilmay qolishi mumkin.

O’zgarishlarni boshqarish (change management) nuqtai nazaridan sun'iy intellektni joriy etish jarayoni xodimlar va tashkilotlar tomonidan qarshilikka uchrashi mumkin bo'lgan tashkiliy o'zgarish sifatida qaralishi lozim. Shu sababli joriy etish bosqichma-bosqich — dastlab ma'lumotlar yig'ish va tahliliy infratuzilmani shakllantirish, so'ngra qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi algoritmlarni sinovdan o'tkazish, nihoyat to'liq integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga o'tish tarzida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va tavsiyalar. O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi tavsiyalar shakllantirildi: birinchidan, raqamli logistika platformalarini boshqarishda sun'iy intellekt gibrid boshqaruv modeli — ya'ni algoritmik tavsiya va insoniy yakuniy qaror uyg'unligi — asosida joriy etilishi zarur; ikkinchidan, tashkiliy tuzilmada ma'lumotlar tahlili bo'yicha alohida funksional bo'g'in shakllantirilishi lozim; uchinchidan, kadrlarni AI asosidagi tizimlar bilan ishlashga tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqilishi kerak; to'rtinchidan, joriy etish jarayoni o'zgarishlarni boshqarish tamoyillari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv Milliy Raqamli Yuk Tashish va Logistika Ekotizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining transport-logistika sohasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlari, 2025-yil.
3. Robbins S.P., Coulter M. Management. — 15th ed. — Pearson, 2021.
4. Nishanbayev B.Q. "O'zbekiston Respublikasida Milliy Raqamli Yuk Tashish va Logistika Ekotizimini 2035-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (loyiha materiallari).